



QISHLOQ XO'JALIGINI DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINING TAMOIYILLARI VA MACROIQTISODIY JIHATLARI

Kurbonov Xayrilla

i.f.n., dots. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

email: kh.kurbonov@tsue.uz

Maxmudov Azizxo'ja Ziyodullaevich

TDAU mustaqil tadqiqotchisi

email: a.makmudov@tdau.uz

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 1 Issue: 9 DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss9/a20	Maqolada qishloq xo'jaligini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab quvvatlashning tamoyillari va zamonaviy kontseptual asoslari yoritilgan. Davlat tomonidan moliyaviy qo'llab quvvatlashning fiskal va monetar instrumentlari umumiy tavsiflari, makroiqtisodiy barobarlikka ta'siri nazariy jihatdan asoslab berilgan. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'shlab quvvatlashning tizimlashtirilgan tamoyillari asosida uni samarali tashkil qilishga yo'naltirilgan takliflar asoslangan.
KEYWORDS	<i>tartibga solish sub'ektlari, regulyatorlar, tartibga solish tamoyillari, moliyaviy instrumentlar, moliyaviy ekspluatatsion ehtiyojlar, moliyaviy dastaklar, ijtimoiy omillar, yashil korzina.</i>

Kirish (Introduction/Введение)

Barchamizga ma'lumki, iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi tarmog'ida mamlakat aholisining kundalik ehtiyojlari uchun zaruriy bo'lgan mahsulot yetishtirilib, tarmoqning barqaror rivojlanishi hozirgi kunda global masshtabda dolzarb hisoblangan oziq ovat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq strategik vazifani samarali ta'minlashga shart sharoit va imkoniyat yaratadi. Lekin ushbu tarmoqda boshqa tarmoq va sohalarga nisbatan yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, tarmoq ishlab chiqarishining ma'lum zaif jihatlariga asoslangan holda uni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimiga ehtiyoj seziladi. Bozor iqtisodiyotida esa tarmoqni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimi tarmoqdagi intensiv rivojlanish omillarini hisobga olish orqali nafaqat mamlakat aholisining oziq ovqat xavfsizligini ta'minlash balki, tarmoqdagi keng imkoniyatlarni realizatsiya qilish orqali qishloq aholisi turmush farovonligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va mamlakat iqtisodiyotini eksport salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan strategik vazifalarni samarali realizatsiya qilishga imkoniyat yaratishni darkor. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining (FAO) e'tirof etishicha, oxirgi prognozlarini hisobga olgan holda 2050-yilga qadar jahon aholisining o'sib borayotgan talablarini qondirish uchun qishloq xo'jaligida ishlab chiqariladigan iste'mol mahsulotlarini 2012-yilga nisbatan deyarli 50 %ga oshirishni talab qiladi [4]. Ushbu holat global va milliy masshtabda qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat tomonidan moliyaviy qo'llab quvvatlashning zamonaviy tamoyillarini ishlab chiqish, uning ilmiy asoslarini tadqiq qilishni taqozo qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review, Анализ литературы).

Ushbu tadqiqot ishida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimida qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab quvvatlashning zarurligi, zamonaviy sharoitlarda davlat tomonidan moliyaviy qo'llab quvvatlashning tizimli tamoyillari asosida tarmoqni barqaror rivojlanishini ta'minlash masalalari yoritilgan. Qishloq xo'jaligi davlat tomonidan moliyaviy (fiskal va monetar instrumentlar) qo'llab

quvvatlashning makroiqtisodiy jihatlari nazariy asoslari tizimlashtirilgan. Ma'lumki, jahon miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq islohotlar sharoitida qishloq xo'jaligini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimini samarali tashkil qilish bo'yicha qator mahalliy va x'orijiy iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, iqtisodchi S.V. Barulin [6] iqtisodiyotni moliyaviy qo'llab quvvatlashning ikki asosiy jihatlariga e'tibor qaratgan. Iqtisodchi I. V. Ziyatkovski [7] esa davlat tomonidan moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimiga iqtisodiyotni tartibga solish tizimi elementi sifatida e'tibor qaratgan va o'zaro ichki aloqalar elementlar majmuasidan iborat yahlit tizim sifatida o'rgangan. Iqtisodchi T.V. Sokolskaya [8] bevosita qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimini tadqiq qilib, asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlari uchun moliyaviy resurslarni barqaror manbaini ta'minlashga yetarli moliyaviy shart sharoit yaratish tizimi sifatida ta'rif beradi. Iqtisodchilar L.V. Dikan va Yu.O. Xolub [9] davlat tomonidan moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimini takror ishlab chiqarish jarayoni uchun zaruriy moliyaviy resurslarni ta'minlashni davlat tomonidan tartibga solish shakl va usullari sifatida tavsiflaydi. A.Ye. Xutz [5] moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimiga ma'lum iqtisodiy subyektlar me'yordagi faoliyati uchun zaruriy moliyaviy resurslar bilan ta'minlash imkoniyati sifatida aniqlik kiritadi.


Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Tadqiqot ishida ilmiy abstraksionalash, induksiya-deduksiya kabi nazariy usullardan va kuzatish, imitatsion modelashirish kabi empirik usullardan keng foydalanilgan.

Tahlillar (Analysis/ Анализ).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotning tizimli rivojlanishi uning tarmoqlari, mavjud iqtisodiy subyektlar faoliyatini o'zaro uyg'unlikda taraqqiyoti natijasida ta'minlanadi. Ushbu uyg'unlikdagi rivojlanish jarayoni davlat, bozor va biznes subyektlari kesimida faoliyatni tizimli ravishda tartibga solish orqali ta'minlanadi. Barcha tarmoqlar kabi qishloq xo'jaligining o'rta va uzoq muddatli

rivojlanish strategiyasi tarmoq ichki xo'jalik munosabatlarini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlariga asoslanadi.



1-rasm. Qishloq xo'jaligini tartibga solish tizimining elementlari.

1-rasmdan ko'rib turganimizdek, qishloq xo'jaligini tartibga solish jarayoni tizimli tavsifga ega bo'lib, unda tartibga solish subyektlari davlat, bozor va biznes tuzilmalari ishtirok etadi. Tartibga solishda bir qator regulyatorlar ishtirok etib, ushbu regulyatorlar bir qator shakllar, usullar va ushbu usullarda mujassamlanuvchi turli instrumentlardan foydalaniladi.

Har bir mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining muvozanatli rivojlanishiga bog'liq bo'lib, bu iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish orqali ta'minlanadi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish bir qator yo'nalishdagi shakllarda amalga oshirilib, uning rivojlanishini siklik holatlariga bog'liqdir. O'tish davri bilan bog'liq iqtisodiyotdagi siklik muammolar sharoitida davlat tomonidan tartibga solish asosan ma'lum tarmoqlarni qo'llab quvvatlashning keng arsenalini o'zida mujassamlashtiradi. Ma'lumki, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullarini orqasida moliyaviy instrumentlar orqali qo'llab quvvatlash asosiy o'ringa ega bo'lib unda fiskal va monetar instrumentlari, baholar mexanizmi va davlat investitsiyalari orqali qo'llab quvvatlash markaziy ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodchi S. V. Barulin [6], moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimini ikki tomonlama jarayon sifatida ko'rib o'tadi. Uning fikricha moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimi, alohida iqtisodiy agentlarni moliyaviy ta'minot tizimini ma'lum noaniqliklar sharoitida optimal ta'minlashni muvofiqlashtirish hisoblanadi. Ikkinchidan, ushbu jarayon ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoni va ijtimoiy sohalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va fuqarolarning ehtiyojlarini qondirish nuqtayi nazaridan moliyaviy qo'llab-quvvatlash amalga oshirilishini ta'kidlab, uning fikricha moliyaviy qo'llab quvvatlash jarayoniga kapitalni boshqarish tizimi sifatida ham qaralishini lozimligini ilgari surgan.

Iqtisodchi I. V. Ziyatkovskiyning [7] fikricha, moliyaviy qo'llab quvvatlash yahlit tizim sifatida- jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini barqaror rivojlanishini moliyaviy ta'minlash uchun qulay muhit yaratadigan moliyalashtirish manbalari va shakllari tizimidir. T. V. Sokolskaya [8] qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimiga aniqlik kiritib, qishloq xo'jaligi tadbirkorlik subyektlarining asosiy va aylanma, xususiy va qarz mablag'lar bilan ta'minlash, yetarli hajmdagi mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash uchun qulay moliyaviy shart sharoit yaratish tizimi ekanligini ta'kidlaydi.

"Moliyaviy qo'llab quvvatlash" tizimi borasida iqtisodchilar L.V. Dikan va Yu.O. Xolublar [9] quyidagi muhim fikrlarni tizimlashtirishgan "... korxonalar faoliyatini moliyaviy qo'llab quvvatlash keng ma'noda takror ishlab chiqarishning zaruriy hajmi uchun zaruriy xarajatlarni moliyaviy ta'minlash orqali korxonaning barqaror rivojlanishini muvofiqlashtiradigan chora tadbirlar va shart sharoitlar majmuasini o'zida mujassamlashtiradi". Demak, ushbu ta'rifda moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimi ma'lum tadbirkorlik subyektlari kesimida barqaror faoliyati uchun yetarli moliyaviy ta'minotni shakllantiruvchi moliyaviy faoliyat bilan bog'liq chora tadbirlar ekanligiga aniqlik kiritilgan.

Yuqoridagi berilgan ta'riflar sintezi asosida ta'kidlash mumkinki, moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimi- iqtisodiy agentlarning moliyaviy ekspluatatsion ehtiyojlarini to'laqonli qondirish va maqsadli moliyalashtirish uchun davlat tomonidan moliyaviy resurslarni jalb qilish va to'plash bilan bog'liq tizimli jarayondir.

Aksariyat ilmiy manbalarda moliyaviy qo'llab-quvvatlashni moliyaviy boshqaruv tizimining elementi sifatida qabul qilish tavsiya etiladi. Ushbu jarayon moliyaviy resurslarni jalb qilish va ulardan muayyan faoliyat maqsadlarida foydalanish orqali pul mablag'larini kapitalga aylantirishga qaratilgan faoliyat moliyaviy mexanizmning tashkiliy elementini o'zida mujassamlashtiradi. Lekin shuni alohida ta'kidlash joizki, moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimiga kiritilgan aniqliklarda asosan uning tizimli jarayon sifatidagi xususiyatlari yoritib berilgan. Lekin ushbu jarayonning tashkiliy elementlari va instrumentlariga yetarli aniqlik kiritilmagan.

Bu borada, ma'lum tarmoq, xususan, iqtisodiyotning qishloq xo'jaligini qo'llab quvvatlash tizimiga oid ilmiy qarashlarda nisbatan batafsil berilishi ko'rishimiz mumkin. Masalan, Endryu Barkley [10] qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimi tarmoq tadbirkorlik subyektlarini barqaror faoliyati uchun qulay moliyaviy muhit va resurslarni shakllantirishga yo'naltirilgan davlat tadbirlari majmuasi ekanligini ilgari surib, ushbu jarayon fiskal, monetar va boshqa moliyaviy instrumentlar vositasida amalga oshirilishiga aniqlik kiritgan. V. Eldon Ball, Roberto Fanfani va Luchano Gutierrezlar [11] esa, qishloq xo'jaligi davlat tomonidan moliyaviy qo'llab quvvatlashda fiskal va monetar instrumentlar, davlat subsidiyalari alohida e'tibor berib o'tishgan.

Qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning maqsadlari va mexanizmlari asosan pul oqimlarining muhim kanallaridan biri hisoblangan qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayonlarini moliyaviy ta'minlash vositasida moliya tizimining takror ishlab chiqarish jarayoni iqtisodiy subyektlari o'rtasida iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirish imkoniyatlarini tavsiflaydi.


Qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimining samaradorligi birinchi navbatda ularda shakllantirilgan moliya mexanizmining optimal tuzilmasiga bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida xo'jalik munosabatlarini tashkil qilishning tarmoq tuzilmasiga asoslanadi. Ma'lumki, qishloq xo'jaligida optimal moliyaviy qaror qabul qilish jarayonida moliya mexanizmi samaradorligiga oid ma'lumotlar bazasini ikki asosiy yo'nalishga turkumlash mumkin:

- funksional ya'ni qishloq xo'jaligida faoliyat olib boruvchi tadbirkorlik subyektlarini kapitalga bo'lgan moliyaviy ekspluatatsion ehtiyojlarini optimallashtirish jarayonidagi moliyaviy resurslar oqimlari yo'nalishi va shakllarini o'z ichiga oladi. Buni tor ma'noda operatsion faoliyatni moliyalashtirish bilan bog'liq resurs va moliyaviy oqimlar tizimi deb ham aytishimiz mumkin.

- institutsional ya'ni moliyaviy va resurs oqimlarining harakat jarayonida unda ishtirok etuvchi institutsional birliklar hamda mavjud me'yoriy-huquqiy asoslar nuqtayi nazardan maqsadga muvofiqligi nazarda tutiladi.

Ushbu axborot massivlari tarmoqni qo'llab quvvatlash davlat siyosati samaradorligini real baholashning asosiy manbai hisoblanib, mavjud shakllantirilgan moliya mexanizmining tashkiliy-funksional elementi hisoblanadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligida mavjud shakllantirilgan moliya mexanizmiga bog'liq holda ularni moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimi samaradorligini baholashda avvalo, uning asosiy funksional elementlari bo'yicha takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish xususiyatlarini aniqlash zarur bo'ladi.

Agrar sektor moliyaviy mexanizmi quyidagi rasmda ifodalangan.



2-rasm. Qishloq xo'jaligi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil qilishning moliyaviy mexanizmi elementlari¹.

Yuqoridagi rasmda moliyaviy mexanizmning umumbelgilangan elementlari ya'ni moliyaviy munosabatlarni tashkil qilishning usullari va

shakllari; moliyaviy dastaklar va me'yoriy-huquqiy va axborot ta'minoti tizimi kabi elementlarni o'z ichiga kiritadi. Demak, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimi ham tabiiy ravishda ushbu moliyaviy mexanizm funksional elementlariga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi korxonalarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi aynan ushbu mexanizmning quyidagi funksional elementlarini sifat va miqdor jihatdan samarali ishlash mexanizmiga qaratiladi:

□ rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish, loyihalash usuli va ekspert baholash usullaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan moliyaviy rejalashtirish tizimi orqali qo'llab quvvatlash;

□ moliyalashtirish, kreditlash va investitsiyalash yo'li bilan amalga oshiriladigan moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimi;

□ soliqlar tortish va bojxona siyosati, litsenziyalash, kvotalar va sertifikatlashtirish, hisob kitoblarni tizimi orqali amalga oshiriladigan moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimi;

□ audit, tekshirish, baholash, monitoring va tahlil doirasida amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat orqali qo'llab quvvatlash.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash masalasi iqtisodiy adabiyotda ham nazariy va shuningdek, amaliy nuqtayi nazaridan keng masshtabda ko'rib chiqiladi va muhokama qilinadi. Bshunda nazariy tadqiqotlarning obyekti sifatida moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimiga uslubiy jihatdan yondashuv, uning tamoyillarini tizimlashtirish hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimida yuqorida aytib o'tilganidek, qishloq xo'jaligini qo'llab quvvatlash tizimini tashkil qilish tavsifini o'zida mujassamlashtiruvchi omillar mavjud bo'lib, ushbu omillarni quyidagi jadval orqali tizimlashtirishga harakat qilamiz.

1-jadval
Qishloq xo'jaligi davlat tomonidan qo'llab quvvatlashning zarurligini belgilab beruvchi omillar²

№	Omilar asosiy guruhlari	Mavjud shart sharoitlar
1.	Umumiy iqtisodiy omillar	Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash Ishlab chiqarish omillari va tayyor mahsulot narxlarini belgilashga nisbatan baholar paritetining buzilish holatlarini mavjudligi Baholarning mavsumiy tebranish amplitudasi yuqori darajasi Asosiy va aylanma kapital aylanish davrining mavsumiy tavsifiga egaligi Asosiy daromadning mavsumiy tavsifiga egaligi Nisbatan past rentabellik va xarajatlarni qoplash muddatining uzoq davri ITTKI natijalarini joriy qilishning past darajasi
2.	Tabiiy-iqlim omillari	Iqtisodiy sikl o'simliklar va jonli organizm rivojlanishining tabiiy jarayonlariga bog'liq Texnologik jarayonlar cheklangan yer resurslari bilan bevosita bog'liq Operatsion va moliyaviy faoliyat tabiiy-iqlim shart sharoitlariga kuchli bog'langan Aktrof muhitga antropogen ta'sirning mavjudligi
3.	Ijtimoiy omillar	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini aholining keng ijtimoiy qatlamlari iste'molining zarurligi Qishloq aholisining daromad, turmush farovonligini tarmoq rivojlanishiga bog'liq Qishloq aholisi bandligining tarmoq rivojlanishiga bog'liqligi Sog'lom ovqatlanish ratsionini ta'minlashni tarmoq ishlab chiqarish jarayoniga bog'liqligi
4.	Tashqi iqtisodiy faoliyat	Milliy iqtisodiyotni eksport salohiyatini oshirishdagi tarmoqning ulkan imkoniyatlari Mamlakatlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha tabiiy-geografik shart sharoitlarning teng taqsimlanmaganligi Milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobat muhitini proteksionizm siyosati orqali qo'llab quvvatlash

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlanishini ta'minlashda sanalgan omillar sezilarli darajada ta'sir etadi. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimida ushbu omillar vazniga har bir mamlakatda ushbu tarmoq bo'yicha shakllangan salohiyat, mamlakat iqtisodiy holatiga xos vaziyat ta'sir etadi. Shuningdek, ushbu omillar qatorida barcha mamlakatlar agar sohasi uchun turdosh bo'lgan omillar ham mavjud bo'lib, tarmoqning raqobatdoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan islohotlarni amalga oshirishda parallel ravishda inobatga olinmoqda.

Ayniqsa hozirgi sharoitda global masshtabda dolzarb bo'lib borayotgan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq kun tartibidagi masala sharoitida umumiy iqtisodiy omillar bilan bog'liq tarmoqni rivojlanishini yanada jadallashtirish masalasi har bir mamlakat agar sohasi rivojlanish strategiyasi markazida bo'lmoqda. Ayni paytda O'zbekiston markaziy Osiyo mamlakatlari ichida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqish va uni eksport qilish bo'yicha ulkan salohiyatga egaligini inobatga olib, tarmoqni rivojlantirish orqali nafaqat mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish balki, eksporti ni yuksaltirish bo'yicha strategik maqsadlarimizni ham realizatsiya qilish imkoniyatlariga egadir.

Shuning uchun ham 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi[1] uchinchi maqsadlar yo'nalishi 30-maqсадida qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sish sur'atini kamida 5 foizga yetkazish bo'yicha qator vazifalar belgilangan. Ushbu maqsadda yettita asosiy maqsadli ko'rsatkichlarni o'zida

mujassamlashtirgan o'rta muddatda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilangan bo'lib, Qishloq xo'jaligida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish va sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirishga ham alohida urg'u berilgan. Aynan ushbu vazifada belgilangan boshqa maqsadli ko'rsatkichlarni samarali ijrosini ta'minlashga yo'naltirilgan tarmoqni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash belgilangan.

Ma'lumki, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va obyektlarni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari bo'yicha "Tartibga solish" degan tushunchada boshqaruv subyekti boshqariladigan tizimga bevosita yoki to'g'ridan-to'g'ri ta'siriga emas, balki bozor hujjat-voriga ta'sir etuvchi umumiy qoidalami o'rnatishga asoslangan bilvosita boshqaruvning turli shakllari ham tushuniladi. Bunda mavjud iqtisodiy xulq-atvor me'yori, moliyaviy-iqtisodiy rag'batlantirish tizimi va bilvosita ta'sir dastaklarining keng spektridan foydalanish nazarda tutilmoqda. Davlat tomonidan tartibga solish tizimining fundamental nazariyasiga muvofiq avtomatik regulatordlar yoki barqarorlashtiruvchilar¹ - deb ataladigan tartibga solishning fiskal va monetar instrumentlaridan foydalanish orqali tarmoqlarda tadbirkorlik subyektlari va davlat manfaatlarini mushtarakligidagi iqtisodiy o'sish ta'minlanadi.


Garchi yuqorida ta'kidlanganidek, iqtisodiy fanda davlat tomonidan "Tartibga solish" va "Qo'llab quvvatlash" kategoriyalariga nisbatan turli ilmiy qarashlar tizimlashtirilgan bo'lsa-da, tarmoqlar tarkibida davlat tomonidan qo'llab quvvatlashning keng spektridagi shakllari va usullaridan foydalanishda markaziy o'rinni egallovchi qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va uning tamoyillariga yagona yondashuv mavjud emasligi kuzatilmoqda.

Mavjud manbalar kesimidagi tadqiqotlarga asoslangan holda shunday umumiy xulosani keltirish mumkinki, qishloq xo'jaligini "Davlat tomonidan tartibga solish" kategoriyasi "Davlat tomonidan qo'llab quvvatlash" kategoriyasiga nisbatan keng tushuncha hisoblanib, bozor iqtisodiyotining turli sikllari rivojlanish davrida, xususan pasayish fazasida uning bir kombinatsion varianti sifatida davlat tomonidan qo'llab quvvatlashning keng usullaridan foydalaniladi.

Xususan, davlat tomonidan qishloq xo'jaligini tartibga solishning eng keng tarqalgan va muhokama qilinadigan instrumentlari sifatida moliyaviy instrumentlar orqali tartibga solish mexanizmini ko'rishimiz mumkin. Ushbu mexanizm ikki asosiy yo'nalishdagi instrumentlar keng arsenalini o'zida mujassamlashtirib, ular umumiy tarzda fiskal va monetar instrumentlarga turkumlash mumkin.

3-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, J. Keynes nazariyasi asosidagi Keynes xochi qoidasiga muvofiq, qishloq xo'jaligini fiskal instrumentlar vositasida qo'llab quvvatlashda davlat xarajatlari² (G) va soliqlar³ (T) kabi instrumentlar orqali soliq to'lovchilarning shaxsiy tasarrufidagi yoki rejalashtirilgan daromadlarini (AE) ma'lum ekvivalentda oshirilishi ($\Delta G, \Delta TB$) ta'minlanadi. Natijada barcha tarmoqlar kabi qishloq xo'jaligi tarmog'i ishlab chiqaruvchilarning shaxsiy tasarrufidagi daromadlarini ortishi bozordagi pulga bo'lgan talabning ortishiga olib keladi. Agar bozordagi pul taklifini Markaziy bank tomonidan qat'iy tartibga solish siyosati olib boriladigan bo'lsa bunday sharoitda, pul bozorida talab va taklif muvozanatidagi pul taklifi vertikal o'q shaklida (M^s) bo'ladi.

Tabiiy ravishda bunday sharoitda pulga bo'lgan investitsion va transaksion talabning ortishi ($M^D(Y_1)$ dan $M^D(Y_2)$ ga harakatlanadi) iqtisodiyotdagi foiz stavkasining o'tirishiga (i_1 dan i_2 ga harakatlanadi) ta'sir etadi. Agar foiz stavkasining o'sish sur'ati qishloq xo'jaligi tarmog'idagi o'rtacha rentabellik darajasidan yuqori bo'lsa yoki investitsiyalar rentabellik me'yorida yuqori bo'lsa, navbatdagi stansionar davrda tarmoqdagi investitsiyalarni qisqarishi ($I(i)$) va ulami pul bozoriga o'tib borish tendensiyasi kuzatiladi.



3-rasm. Davlat tomonidan fiskal instrumentlar vositasida qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab quvvatlash mexanizmi[12].

Bunday mantiqiy qoidaga asoslangan tizimli jarayon orqali ayni paytda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab quvvatlashning

obyektiv asoslari va xususiyatli jihatlariga egaligini ko'rishimiz mumkin. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solishning bevosita va bilvosita shakllari mavjud bo'lib, ular bir qator usullarni o'zida mujassamlashtiradi.

Iqtisodiy adabiyotda tartibga solishning shakl, usul va instrumentlari to'g'risida ma'lum tizimli aniqlik mavjud emas. Xususan, bu borada rossiyalik iqtisodchi N.A. Novinchixina[13] tartibga solish jarayonidagi subyektning obyektga ta'sirining umumiy yo'nalishlariga tartibga solish shakllari deb aniqlik kiritadi. Har bir tartibga solish shakllari ma'lum usullarni o'zida mujassamlashtirishini va agrar sohani davlat tomonidan tartibga solishning shakl va usullari maxsus instrumentlar yordamida amalga oshirilishini ilgari suradi. Yana bir ilmiy-nazariy yondashuvni ko'rib o'tadigan bo'lsak, agrar sohani davlat tomonidan tartibga solish ma'lum qoidalar va nazariy tamoyillar asosida obyekt bilan bog'liq jarayonlarni anglash, tushunish va unga ta'sir etish usullari tizimi nazarda tutiladi[14].

I.S. Podduev[15] agrar sohani davlat tomonidan tartibga solishga oid ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda, uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi modelini umumlashtirgan. Natijada, barcha usullar tarkibiga kiruvchi instrumentlarni ikki asosiy guruhga ajratib ifodalagan bo'lib, ularni: iqtisodiy (subsidiyalar, sug'urtalash, soliqliq mexanizmi, subsidiyalangan kreditlar) va tashkiliy (maqsadli kompleks dasturlar, baholarni tartibga solish, litsenziyalash, sertifikatlash) kabi turkumlarga ajratgan.

Bizning fikrimizcha, ushbu yondashuvlarda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solishning shakl, usul va instrumentlari tarmoq rivojlanishining jihatlarini va shuningdek, administrativ hamda bozor usullari kontekstida yoritib berilgan. Lekin yuqoridagi qarashlarda "Shakl", "Usul" va "Instrument" kategoriyalarining tub mohiyati bo'yicha turkumlash amalga oshirilgan bo'lsa-da, tartibga solish usullari va instrumentlarining turkumlanishida yana bir nozik jihatni inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Umumiy kontekstda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish tizimidagi moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimida fiskal va monetar instrumentlar markaziy ahamiyat kasb etib, ularning kombinatsion variantlaridan foydalanish qishloq xo'jaligidagi moliyaviy resurslarni shakllanishi va ularni doiraviy aylanishining tarmoq xususiyatlariga bog'liqdir.

Xususan, islohotlarning hozirgi sharoitida qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab quvvatlash tamoyillar tarmoqdagi moliyaviy resurslar harakatining quyidagi fundamental omillariga bog'liq bo'lmoqda: (a) takror ishlab chiqarish jarayonining siklik va mavsumiy tavsifiga ko'ra qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanishga ta'sir etuvchi omillar; (b) qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab natijasidagi narxlarining keskin o'zgarishiga bog'liq holda pul oqimi va korxonalar to'lov qobiliyatining hajmining o'zgaruvchanligi; (v) korxonalar faoliyati natijalari va moliyalashtirish manbalarining iqlim sharoiti ta'siriga bog'liqligi; (g) qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda foydalaniladigan asosiy ishlab chiqarish omillari qatorida yer markaziy ahamiyat kasb etadi.

Lekin, boshqa asosiy vositalarining fond qaytini nisbatan past darajani tashkil qiladi. Yer resurslaridan foydalanish natijasida amortizatsiya hisoblash amaliyotining mavjud emasligi va tannaxda hisobga olinmasligi, uni unumdorligini oshirish bo'yicha xarajatlarni nazorat qilish imkoniyatlarini yo'qolishiga olib keladi.

Milliy qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab quvvatlashni takomillashtirishning muhim hal qiluvchi qadamlaridan biri BJST qoidalar bilan ruxsat berilgan "Yashil korzina" bilan aniqlanadigan tadbirlar yo'nalishida qo'llab quvvatlash amaliyotiga rioya qilishdir.

Yuqoridagi holatlar har bir mamlakat milliy qishloq xo'jaligi salohiyati va ishlab chiqilgan rivojlanish strategiyasiga asoslangan holda uni davlat tomonidan tartibga solishning elementi hisoblangan moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimi tamoyillarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

O'zbekiston respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan

strategiyasida belgilangan to'qqizta ustuvor yo'nalishlari[2] talablari asosida tarmoqni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab quvvatlashning quyidagi tamoyillari tizimlashtiriladi.

2-jadval

№	Tamoyillar guruhi	Tamoyillar mazmuni
1.	Milliy iqtisodiyotni tartibga solish tamoyillari	Iqtisodiy jarayonlarga davlat aralashuvini minimal darajasi
2.		Davlat tomonidan ijtimoiiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda bozor regulyatorlariga (bilvosita usullar) ustuvorlik berish
3.	Qishloq xo'jaligini tartibga solish va moliyaviy qo'llab quvvatlash tamoyillari	Ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarning ya'llitligi
4.		Resurslardan maksimal samaradorlikda foydalanish
5.		Agrar sohani tartibga solishda bozor regulyatorlari (bilvosita) va ma'muriy (bevosita) usullarning optimal ya'llitligini ta'minlash
6.		Agrar proteksionizm siyosatini samarali amalga oshirish va dasturlashtirilgan tartibga solish mexanizmidan foydalanish
7.		Mulkiylikning turli shakllaridagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tartibga solish tizimida egiluvchan yondashuv
8.		Iqtisodiy erkinlik va xo'jalik subyektlarini kafolatlangan maqsadli qo'llab quvvatlash

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab quvvatlashning tamoyillari qatorida iqtisodiy jarayonlarga davlatning aralashuvini minimallashtirishni belgilanishi, tarmoq uchun qulay, optimal xo'jalik mexanizmini shakllantirish orqali uni barqaror rivojlanishini ta'minlash nazarda tutiladi.

Ushbu tamoyilga asoslangan holdagi islohotlar qishloq xo'jaligi tarmog'ini tartibga solishda bozor regulyatorlariga ustuvorlikni berilishini taqozo qiladi. Bunda byudjet-soliqlik va pul-kredit mexanizmlari orqali tartibga solish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Umuman, yuqoridagi tamoyillar qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash tizimini tarmoqda amalga oshirilayotgan islohotlar ya'ni O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan Strategiyasida[2] belgilangan ustuvor yo'nalishlar kesimidagi islohotlar samarali ijrosini ta'minlashning adekvat iqtisodiy mexanizmi bo'lib xizmat qilishiga shart sharoit yaratadi.

Maqola bo'yicha xulosa va takliflar (Conclusions/Заключение).

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab quvvatlashning moliyaviy mexanizmini ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalar tizimlashtirildi:

Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning moliyaviy mexanizmini nazariy jihatlarini umumlashtirish qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, innovatsion rivojlanish tendensiyasini ta'minlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan strategik yo'nalishdagi maqsadlarni uyg'unlashtirish orqali iqtisodiy va tashkiliy jihatdan ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur.

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish tizimi to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita tartibga solishning ma'muriy va bozor instrumentlarining keng spektrlarini o'zida mujassamlashtiruvchi shakllari va usullarini o'z ichiga oladi.

Zamonaviy sharoitlarda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish tizimida ustuvor ahamiyat kasb etuvchi "Moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimi" tarmoqni yaqin istiqbolda strategik rivojlanishini ta'minlashning quyidagi pirovard maqsadlari ta'minlashga qaratilishi lozim:

1. Yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga qaratilgan ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va innovatsion texnologiyalarni joriy qilish maqsadga muvofiq.

2. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash orqali yerdan unumli foydalanishga asoslangan holda ixtisoslashtirish lozim.

3. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilishda bozor mexanizmlarini joriy qilish; milliy boyligimiz hisoblangan yerdan foydalanishda uning tabiiy unumdorligini oshirishga qaratilgan agrotexnik tadbirlar, sog'lom ekotizimni shakllantirishni manzilli qo'llab quvvatlash; qishloq infratuzilmasini yaxshilashga tarmoq ishlab chiqarishini samarali ta'sirini shakllantirishga qaratilgan tarmoq tadbirkorlik subyektlarini samarali boshqaruv tizimini tashkil qilish zarur.

References:

- 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoniga 1-ilova.
- O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan Strategiyasi // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrda PF-5853-son Farmoni 1-ilovasi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrda PF-5853-sonli Farmoni 1-ilovasidagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan Strategiyasi
4. FAO, 2017. The future of food and agriculture – Trends and challenges. Rome. [Elektronnyy resurs]. URL: <http://www.fao.org/3/a-i6583e.pdf> 25.03.2021.
5. Hutz, E.E. (2007). Provision of farm financial resources in a time of change and stabilization. *Economy AIC*, issue 3, p. 46-53.
6. Barulin, S.V. (2010). Finance. – Moscow, KNORUS, 640 p.
7. Zyatkovskyy, I.V. (2000). The financial support of business – Temopol, *Economic thought*, 215 p.
8. Sokolska, T.V. (2014). Financial support for agriculture. *Economy and management of agribusiness*, issue 1, p. 140-146.
9. Dikan, L.V., Holub, Yu.O. (2007). Financial support for the enterprise: the nature and source. *Economy Development*, issue 3 (43), p. 65–68.
10. Andrew Barkley (2020). *Principles of Agricultural Economics* 3rd Edition.
11. V. Eldon Ball, Roberto Fanfani, Luciano Gutierrez (2010) *The Economic Impact of Public Support to Agriculture*. 2010.
12. Qurbonov X.A. "Davlat moliyasini boshqarish". Ўқув қўлланма. Т.: ТДИУ, 2019.
13. Новинчихина Н.А. (2014) Теоретические аспекты государственного регулирования сельского хозяйства // *Современные проблемы науки и образования*. -№5. - с.358.
14. Курносоев А.П. (2010) Оптимизация параметров развития сельскохозяйственных предприятий в условиях государственного регулирования АПК // *Монография. - Воронеж: ФГОУ ВПО Воронежский ГАУ*. -191 с.
15. Поддубова И.С. (2016) Основные элементы модели организационно-экономического механизма государственного регулирования сельского хозяйства региона // *Проблемы и перспективы экономики и управления: материалы IV Международного науч. прак. конф. - Санкт Петербург* -С.41-44...